

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGITOSHKENT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ISAKOVA MUQADDAS BADIROVNA

**IMKONIYATI CHEKLANGAN AHOLI UCHUN IXTISOSLASHGAN
MARKAZLARNING ARXITEKTURA MUHITINI TASHKIL ETISH
TAMOYILLARI**

18.00.02– Rayonlashtirish.Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on architecture**

Isakova Muqaddas Badirovna

Imkoniyati cheklangan aholi uchun ixtisoslashgan markazlarning arxitektura muhitini ashkil etish tamoyillari5

Исакова Муқаддас Бади́ровна

Принципы организации архитектурной среды специализированных центров для населения с ограниченными возможностями.....24

Isakova Mukaddas Badirovna

Principles of the organization of the architectural environment of specialized centers for the population with disabilities.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGITOSHKENT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ISAKOVA MUQADDAS BADIROVNA

**IMKONIYATI CHEKLANGAN AHOLI UCHUN IXTISOSLASHGAN
MARKAZLARNING ARXITEKTURA MUHITINI TASHKIL ETISH
TAMOYILLARI**

18.00.02– Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/A78 -raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) ilmiy kengash veb-sahifasining <http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/122-ixtisoslashgankengashlar.html> hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan..

Ilmiy rahbar:

Nazarova Dinara Anvarovna
arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Rahimov Kamol Jalolovich
texnika fanlari doktori, professor

Matniyazov Zafar Erkinovich
arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Etakchi tashkilot:

“O‘zshaharsozlik” LITI DK

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.03/08.05.2024.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. tel.: +998 (55) 508-02-56. e-mail: devon@taqu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy. tel.: +998 (55) 508-02-56. Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.S. Reyimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, arx.f.n., dotsent

M.S. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arx.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda to'siqlarsiz muhit tashkil etish masalasi zamonaviy shaharsozlik va arxitektura amaliyotida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng miqyosda o'rganilmoqda va loyihalash jarayonlarida kompleks yondashuv asosida keng qo'llanilmoqda. AQShda bu yo'nalishning asosiy huquqiy asosi sifatida «Nogironligi bor amerikaliklar haqida qonun» (Americans with Disabilities Act ADA) hisoblanib, uning talablariga ko'ra shahar muhiti va binolarning qulayligini ta'minlash majburiydir. Germaniyada to'siqlarsiz shahar muhiti tashkil qilish «DIN 18040» standartlari orqali boshqariladi, bu standartlar bino va jamoat joylari uchun umumiy foydalanishga mo'ljallangan ob'ektlarning qulayligini ta'minlaydi va joriy qilinishi majburiydir. Shvetsiya inklyuziv loyihalash bo'yicha ilg'or dasturlarni amalga oshirmoqda va Stokgolm kabi shaharlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali shahar makonini nogironligi bor insonlarga moslashtirishda namuna hisoblanadi. Yaponiya esa raqamli texnologiyalar va robotlashtirilgan tizimlardan foydalanib, nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlanishi va yo'nalish topish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), nogironlar huquqlari va shahar muhitining qulayligi masalasini o'zining «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya»sida aks ettirgan bo'lib, bu hujjat ko'plab mamlakatlarda milliy dasturlar ishlab chiqishda asos sifatida qabul qilingan. Bu borada Bu borada davlatlar o'z shaharsozlik va arxitektura siyosatida imkoniyati cheklangan shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olish, infratuzilmani to'liq moslashtirish, to'siqlarsiz muhit yaratish, rehabilitatsiya va moslashtirish markazlarini tashkil etish, transport va ijtimoiy xizmatlarni universal dizayn tamoyillari asosida shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqda. Shu bilan birga, ushbu konvensiya ilmiy-tadqiqot ishlarida ham ijtimoiy inklyuziya, tenglik va qulay arxitektura muhitini yaratish bo'yicha yangi konseptual yondashuvlarni rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlarning dolzarb hisoblanishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun to'siqlarsiz muhit yaratish, arxitektura va shaharsozlikda universal dizayn tamoyillarini joriy etish, rehabilitatsiya va moslashtirish markazlari infratuzilmasini takomillashtirish, aqlli (smart) texnologiyalarni integratsiya qilish, psixologik va estetik qulaylikni ta'minlash, hamda ijtimoiy inklyuziya va integratsiya jarayonlarini samarali tashkil etish yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda nogironlarni qo'llab quvvatlash va ularni turmush tarzini yaxshilash uchun ixtisoslashtirilgan markazlar arxitektura muhitini tashkil etish tamoyillarini ishlab

chiqish, ularni jamiyat taraqqiyotidagi rolini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda shahar infratuzilmalarda nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi insonlar uchun qulayliklar yaratish borasida bugungi kunda jamoat joylarida infratuzilmalarda yangi qurilayotgan binolarda va ayrim rekonstruksiya qilingan inshootlarda nogironlar aravachasi uchun rampalar, piyodalar harakatlanish yo'llarida ko'zi ojizlar uchun taktil qoplamalar, chorrahalarda ovozi svetaforlar maxsus transport vositalari ishga tushirildi va raqamli texnologiyalar orqali qulayliklar yaratilmoqda. Inson huquqlari, jumladan "nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni tizimga solish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilandi".¹ Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash o'z o'rnida qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabridagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2018 yil 11 aprelda PF-5408-son "Qurilish Vazirligini tashkil etish haqida", 2018 yil 14 noyabridagi PF-5577-son "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2023 yil 27-fevraldagi PQ-74-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yildagi 210-son "Nogironlarni statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida va sohaga tegishli boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimi va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27-fevraldagi PQ-74-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

Muammoning o'rganilganlik darajasi². Dissertatsiyaning nazariy asoslarida imkoniyati cheklangan aholini to'siqlarsiz harakatlanishidagi arxitekturaviy muhitni tadqiq qilish jihatlarini yoritib beradigan turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotchilar ishlari asosida shakllantirilgan. Ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammolarni o'rganish bo'yicha loyihalar nogironlar jamiyatning tashkil etilishi tufayli 1982 yillarda paydo bo'ldi.

Nogironligi bo'lgan aholi to'laqonli hayotga ega bo'lishi uchun to'siqsiz harakatlanishni tamoyillarini va turli reabilitatsiya markazlarini xorijiy tadqiqotchi olimlardan: E. Bydarin, N. Saprykina, S Manley, Nogironlarni ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishda, arxitekturaviy ob'ektlardagi ergonomik talablarni qo'llash usullarini tahlil qilish orqali nogironlarni jamiyat taraqqiyotidagi rolini oshirish mavzularini o'rganganlar. K Regenbrent. L Francis, tomonidan tahlil qilingan. U.Rau "Nogironlarni kelajakda to'siqsiz muhitini tashkil etish" mavzusida tadqiqot ishlarini olib borgan. "Nogironlar uchun qulay muhit yaratish" hamda "Zamonaviy jamiyatda inklyuziya" tushunchasini mavzusida D.D Elina, O.O Smolina, O.V Guseva., I.F Lamov, A.A Kim, E.S Chekanova., tadqiqot olib borganlar. С. Г Терскова "Nogironlar uchun xavsiz qulay muhit yaratish usullarini ishlab chiqish mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Nogironlarni integrasiyalash mavzusida I.A Kozireva, S.S Chabanova, F.S.Ismagilova, L.V Markova., A.Yu Tologaeva, M.Novikov, N Priseskaya.,

² Бедарин Е.Л., Сапрыкина Н.А. Особенности принципа эргономичности в архитектуре и дизайне современного жилища [Features of the principle of ergonomics in architecture and design of the modern housing. Ontology of designing]. 2016, no. 2(20), pp. 205-215, Manley, S., de Graft-Johnson, A., & Lucking, K. (2020). Disabled architects: Unlocking the potential for practice. Регенбрехт К. Социальная защита и адаптация инвалидов в Германии Pandia.ru: ежедн. интернет-изд. 2010. - URL: <https://pandia.ru/text/77.248.52795.php> (дата обращения: 10.11.2019). Understanding disability civil rights non-categorically: The Minority Body and the Americans with disabilities act. Philosophical Studies, 175(5), 1135-1149. Пау У. Безбарьерное строительство для будущего. 1-е изд Берлин, 2008.-366 с Елина Д.Д. Инклюзия в понимании современного общества Д.Д. Елина, Т.М. Пахолкина, Е.А. Задумкина Nauchforum.ru: интернет-изд. 2016.г, URL:[https://nauchforum.ru.archive/MNF_humanities_11\(39\).pdf](https://nauchforum.ru.archive/MNF_humanities_11(39).pdf) (дата обращения: 24.10.2019). Ким, А.А. Нормативные документы и базы преобразования городской среды в безбарьерное пространство, на примере норм России (СССР), Европы и Америки А.А. Ким, Т.А. Смольянина Журнал: новые идеи международной научной конференции ФАД ТОГУ. 2015. Том №2. С. 84-91, Ким, А.А. Нормативные документы и базы преобразования городской среды в безбарьерное пространство, на примере норм России (СССР), Европы и Америки А.А. Ким, Т.А. Смольянина Журнал: новые идеи международной научной конференции ФАД ТОГУ. 2015. Том №2. С. 84-91, Чеканова Е.С. Безбарьерная среда в предметном дизайне Бизнес и дизайн ревю. 2016. Т. 1. № 3 (7). С. 11. Терскова С. Г. Реабилитация инвалидов как направление региональной социальной политики: монография. Новокузнецк, 2012., Козырева И.А., Чабанова С. С "Прямая и косвенная дискриминация в сфере труда и занятости инвалидов: анализ проблемы" The Journal of scientific articles "Health and Education Millennium", 2017. Vol. 19. № 6 171-175с., Исмагилова Ф.С., Маркова Л.В. «Барьерная» среда рынка труда как препятствие для профессиональной интеграции инвалидов Известия Уральского федерального университета. Сер. 3. Общественные науки. 2012. № 3 (106)., Тологаева А.Ю. Аутсорсинг как один из эффективных способов трудоустройства инвалидов в коммерческом секторе Отечественный журнал социальной работы. 2015. № 1., Новиков М., Присецкая Н., Котов В. Создание модели трудоустройства молодых инвалидов: пособие по итогам проекта. М.: РООИ «Перспектива», 2006., Топилин К.А. Стимулирование использования трудового потенциала инвалидов на региональном рынке труда (на примере Москвы): дис.канд. экон. наук. М., 2011 г., https://ombudsman.uz.docs/nogironligi_bolgan_shaxslarga_teng_imkoniyatlar_yaratish_boyicha_ishlar_jadallashtirilishi_lozim

V.Kotov K.A.Topilin, tadqiqot ishlari olib borganlar. Buyuk Britaniya universiteti tadqiqotchisi D.Yusupov, oliy majlisning inson huquqlari bo'yicha ombudsmani F.Eshmatova, nogironlarni shahar infratuzilmalaridagi noqulayliklarini bartaraf etish mavzularida tadqiqot olib borganlar.

Mamlakatimizning barcha infratuzilma ob'ektlarida va ixtisoslashgan markazlaridagi talaygina muammolarni bartaraf etish uchun ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasiining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-201902192+201902197-raqamli "Qo'ng'iroq-Mo'ynoq avtomobil yo'l yoqalarining innovatsion landshaft dizayni yechimini ishlab chiqish" (2020-2021) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi imkoniyati cheklangan aholi uchun inklyuziv universal muhit yechimlari va ixtisoslashgan markazlarni tashkil etish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

imkoniyati cheklangan aholini shaharsozlik infratuzilma ob'ektlariga integratsiya qilish yo'llarini aniqlash;

imkoniyati cheklangan aholi uchun ikki kategoriyalari bo'yicha (ko'zi ojizlar va tayanch harakatlarida muammolari bo'lgan insonlar) ixtisoslashgan markazlar ratsional joylashuvi diapazonini belgilash;

imkoniyati cheklangan aholi uchun mahalliy va xorijiy mamlakatlardagi mavjud shahar muhiti va rehabilitatsiya markazlarining arxitekturaviy muhitini tadqiq etish orqali, ulardagi umumiy va antropometrik parametrlarini aniqlash va O'zbekiston QMQ lari tahlil qilish orqali takliflar kiritish;

ko'zi ojizlar va tayanch harakatlarida muammolari bo'lgan insonlar uchun ixtisoslashtirilgan markazlar sxematik tuzilmalarini tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

muayyan ehtiyojlarga moslashgan arxitektura-rejalashtirish yechimlari, funksional va texnologik infratuzilmani optimallashtirish, xavfsizlik va qulaylikni ta'minlash, shuningdek, estetik va psixologik muhitni yaxshilash tamoyillarini ishlab chiqish.tamoyillarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar va Toshkent shahridagi rehabilitatsiya markazlari olingan.

Tadqiqotning predmetini nogironlar uchun muassasalardagi arxitekturaviy muhit parametrlari hamda funksional va ratsional joylashuv chegaralari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada statistik, qiyosiy, internet materiallari va me'moriy loyihalarni tahlil qilish, so'rovnomalar, joyida kuzatuv, ilmiy ma'lumotlarni tizimlash, qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'zi ojizlar va tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlar harakatlanish trayektoriyalarini aniqlash orqali muhim obyektlar va hududiy joylashuviga ko'ra 300 metrli radius diapazon ichida asosiy xizmat ko'rsatish, tibbiy va reabilitatsiya muassasalari, tezkor yordam punktlari va harakatlanishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma elementlari joylashtirilishi; birlamchi obyektlarga nisbatan 50-100 metr, kundalik foydalaniladigan ijtimoiy va maishiy xizmatlar, shaxsiy yordam va reabilitatsiya vositalari markazlari, psixologik va maslahat xizmatlari kabi obyektlar, ikkilamchi obyektlarga nisbatan 150-300 metrgacha radius diapazonlarida joylashtirilishi funksional va ergonomik jihatdan asoslangan;

imkoniyati cheklanganlar uchun ikki kategoriyalar bo'yicha ixtisoslashgan markazlar ratsional joylashuv diapazonini belgilash orqali shaharsozlik infratuzilma obyektlariga integratsiya qilishning funksional hududiy rejalashtirish, transport-kommunikatsiya tizimlari bilan uzviy bog'lanish, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy obyektlar tarmog'i bilan birlashuv, xavfsiz va qisqa harakatlanish marshrutlarini shakllantirish kabi yo'llari aniqlanib, binolarning ichki muhitidan boshlab tashqariga chiqish yo'llari, ko'cha piyodalar yo'laklari orqali bekatlar hamda birlamchi va ikkilamchi obyektlargacha yetib borish yo'lida to'siqsiz, uzluksiz va ergonomik talablar asosida shakllangan harakatlanish tizimini tashkil etish bo'yicha kompleks taklif ishlab chiqilgan;

avtovokzallar, jamoat transport bekatlari, avtoturargohlar, aerovokzallar, temir yo'l vokzallarida, asfalt yoki pol qismiga chizilgan "nogironlar belgisi" vizual aniq ko'rinishi va uzoq masofadan oson idrok qilinishi sababli 1,3 m, transport vositalari harakatlanish xavfsizligini ta'minlash va markazlashtirilgan vizual navigatsiyani yengillashtirish sababli balandligi 1,5 m bo'lishi hamda transport vositalarining asosiy harakat yo'llarining chetki qismida ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun avtomobil to'xtash joylarini tashkil etish va piyodalar yo'lkasiga o'tish uchun panduslar joylashtirilishi, universal dizayn va to'siqsiz muhitni shakllantirish tamoyillari shaharsozlik normalari va qoidalariga kiritilgan;

shahar infratuzilmasida mavjudlik parametrlarini tizimlashtirish modelini ishlab chiqish orqali nogironlar uchun sxematik tuzilmalarni tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha qulaylik, xavfsizlik va axborotlashtirish mezonlariga asoslangan funksional zonalash, harakatlanish trayektoriyalarining optimal uzunligi va yo'nalishlari, taktil va vizual navigatsiya tizimlarini joriy etish,

signalizatsiya va ogohlantirish vositalarini joylashtirish, hamda zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari integratsiyasi kabi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sayyoramizning umumiy aholi soniga nisbatan nogironlar statistik ma'lumotlari ishlab chiqilgan, diagrammalarda keltirilgan;

rivojlangan mamlakatlarda nogironlarga qulay arxitekturaviy muhitlarni tashkil etish usullari va metodologik jihatlari funktsional zonalash, ergonomik parametrlarni aniqlash, universal dizayn tamoyillarini qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish, xavfsizlik va mustaqil harakatlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlar asosida shakllanib, nogironlarning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini oshirishda konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

universal dizayn tushunchalari va uning mezonlarini qo'llash usullari arxitektura ta'lim sohasidagi adabiyotlarga kiritilgan;

O'zbekistonda nogironlarning statistik faktorlari aniqlanib, nogironlar uchun ixtisoslashgan markazlarda qulay arxitekturaviy muhit tashkil etish tamoyillari ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi imkoniyati cheklanganlar arxitektura va shahar muhitida joylashuv bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlari tahlil qilingan va ularni takomillashtirish bo'yicha universal dizayn tamoyillarini to'liq joriy etish, to'siqlarsiz muhit yaratish mezonlarini kengaytirish, funktsional zonalash tizimini mukammallashtirish, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan uzviy integratsiyani ta'minlash, xavfsizlik darajasini oshirish, axborot-navigatsiya tizimlarini takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali infratuzilmaviy rivojlanishni yanada samarali tashkil etishga doir amaliy va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shaharsozlik tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuv va usullar asosida birlamchi moddiy shaharsozlik me'yorlari asoslangan qoidalardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, mavzuning xalqaro va mahalliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, to'plamlarda e'lon qilinganligi, yakuniy natijalar yurtimizning vakolatli tuzilmalari tomonidan amaliyotda qo'llab-quvvatlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston shaharsozlik sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga aholi uchun ixtisoslashgan markazlarning arxitektura muhitini tashkil etish va modernizatsiyalash bo'yicha ilmiy loyiha ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlari faoliyatida, zamonaviy me'morchilik va shaharsozlikni takomillashtirish bo'yicha amaliyotda foydalanish mumkinligi hamda oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik sohasida fanlar mazmunini to'ldirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shahar infratuzilmalarida nogironlar uchun to'siqsiz muhit tashkil etish va ixtisoslashgan markazlar arxitekturaviy muhitini tashkil etishda me'yoriy qoidalarga takliflar kiritish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

qurilish me'yoriy qoidalarida imkoniyati cheklangan aholi uchun qulay muhit yaratish bo'yicha ijtimoiy-nazariy va uslubiy asoslar, shuningdek, ixtisoslashtirilgan markazlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar chuqur tahlil qilingan. Tahlillar natijasida universal dizayn, to'siqlarsiz muhit, funksional zonalash, xavfsizlik, ergonomika va zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tamoyillarining amaliy ahamiyati asoslab berildi. Ushbu ilmiy natijalar asosida O'zbekiston Respublikasining milliy shaharsozlik siyosatini xalqaro talablarga moslashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning shahar infratuzilmasidan erkin, xavfsiz va teng foydalanishini ta'minlash maqsadida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jamoat joylari, avtoturargohlar, transport bekatlari va xizmat ko'rsatish obyektlari hududida asfalt yoki pol qismiga chiziladigan "faqat nogironlar" belgisi kengligi 1,3 metr va balandligi 1,5 metr etib belgilandi, bu esa belgilarning uzoq masofadan ham vizual ravishda aniq ko'rinishini ta'minlash va nogironligi bo'lgan shaxslarning yo'nalishni to'g'ri aniqlash imkoniyatini yaratadi. Maxsus to'xtash joylari uchun o'rnatiladigan "faqat nogironlar" belgisi ustunlarda yer sathidan 1,5 metr balandlikda, piyodalar harakatiga to'sqinlik qilmaydigan masofada joylashtirilishi belgilandi, bu esa transport vositalari haydovchilari uchun ko'rsatkichlarning aniq ko'rinishini va piyodalar xavfsizligini ta'minlaydi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlanishini qulay va xavfsiz tashkil etish maqsadida piyodalar yo'lkasiga o'tish joylarida maxsus panduslar joylashtirish talabi joriy etildi, bunda panduslarning qiyalik burchagi, kengligi, tutqichlar va sirpanishga qarshi qoplamalar bo'yicha ham maxsus texnik parametrlar belgilab berildi. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 2025 yil 31 yanvar № 235 son dalolatnomasi) Natijada shahar infratuzilmasida imkoniyati cheklangan aholi uchun xavfsiz, qulay, funksional va zamonaviy arxitektura muhiti shakllantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtirildi va milliy shaharsozlik amaliyotida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy hayot

sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi kompleks yondashuv samaradorligini oshirishga erishilgan;

shahrimizdagi nogiron bolalar ta'lim muassasalarining arxitektura-rejalashtirish xususiyatlari zamonaviy ilm-fan va amaliy tajriba nuqtai nazaridan tizimli ravishda o'rganish, mavjud ta'lim muassasalarining holati har tomonlama monitoring qilinib, nogironlikning turli shakllari (harakatlanish cheklovlari, eshitish va ko'rish nuqsonlari, rivojlanishdagi buzilishlar va boshqalar) bo'yicha guruhlangan holda tahlil qilindi va ularning ehtiyojlariga mos arxitektura-rejalashtirish yechimlari ishlab chiqish, monitoring natijalariga asoslanib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay arxitektura muhitini shakllantirishda universal dizayn tamoyillari asosida quyidagi ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqildi, fazoviy tasavvurni shakllantirish va adaptatsiya qilish elementlarini interyerga integratsiya qilish, bu orqali bolalar makonning funksional qismlarini mustaqil aniqlash, makonda yo'nalish va harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va sensorli qurilmalar orqali ma'lumotlarni yetkazish tizimini joriy etish, bu bolalarning individual ehtiyojlariga mos axborotni vizual, audiovizual va taktil shakllarda qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Inklyuziv ta'lim muhiti uchun funksional va psixologik qulaylikni ta'minlaydigan interaktiv makonlarni tashkil etish, bunda ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, jamoaviy faoliyatlarda qatnashish va shaxsiy mustaqillikni oshirish imkoniyatlari kengaytirish, ergonomik me'yorlar asosida mebel va jihozlarni loyihalash hamda joylashtirish, harakatlanish cheklovlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlariga mos o'lchamlar va joylashuv mezonlari belgilandi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, tavsiyalar va takliflar Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida joylashgan 25-sonli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda amaliyotga joriy etildi. Ushbu takliflar natijasida maktab binosining arxitektura-rejalashtirish tuzilmasi, ichki interyer yechimlari va funksional zonalash tizimi imkoniyati cheklangan bolalarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda qayta tashkil etildi. (2023 yil 23 noyabr № 02-116-290-sonli dalolatnoma). Natijada nogiron bolalar uchun fazoviy orientatsiya, erkin harakatlanish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini yengillashtiruvchi qulay, xavfsiz va zamonaviy arxitekturaviy ta'lim muhiti shakllantirildi. Ushbu ilmiy-amaliy natijalar keyinchalik boshqa maxsus ta'lim muassasalarida ham qo'llash uchun tavsiya etiladi va umumiy shaharsozlik va arxitektura siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilish samaradorligini oshirishga erishilgan;

inson huquqlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini kafolatlash, inklyuziv rivojlanish siyosatini izchil amalga oshirish va aholining

barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash zamonaviy shaharsozlik va arxitektura amaliyotida joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida erkin va to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va yashash sifatini yaxshilash, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chish kabi metodologik tavsiyalar ishlab chiqilganligi yuzasidan takliflar O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ilmiy tadqiqot va loyihalash jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Badiiy Akademiyasi 2022 yil 16 iyunidagi № NL33773468-son ma'lumotnoma). Natijada universal dizayn, ergonomika, to'siqlarsiz muhit, zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi va psixologik qulaylik tamoyillari asosida ixtisoslashtirilgan markazlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, rehabilitatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalash imkoniyatlari kengayadi, shahar muhitining funksional jihatlarini yangilash va belgilariga ko'ra tasniflash, yangi loyihalash ishlari uchun metodik asos bo'lib xizmat qilish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta, shulardan (1 ta scopus, 4 ta xorijiy jurnalda) maqola, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika konferensiya materiallarida nashr etilganligini aytib o'tdi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Taqdimot materiallari, dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **I bobi “Imkoniyati cheklangan aholi uchun shahar infratuzilmasida xavfsiz qulay muhitni tashkil etish jahon tajribasi ”**deb nomlangan va uch bo‘limdan iborat.

Mazkur bobda tadqiqot mavzusi doirasida olib borilgan ahamiyatli ilmiy tadqiqotlar, hamda ularning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi tahlil qilingan. Dunyodagi nogironlar statistikasi, rivojlangan mamlakatlarda nogironlikni ortib borishi global muammolarga aylanib qolishi bilan birga ularga qulay muhitlarni tashkil etish masalalari ham alohida e‘tiborga olinishi bayon etiladi.³

Zamonaviy shaharsozlik tamoyillarining eng xarakterli jihatlari shundaki, jismoniy zaiflashgan shaxslar yoki nogironlar uchun atrof-muhitining qulayligini oshirish va qulay yashashlari uchun sharoit yaratishni kompleks tashkil etishdir. Zamonaviy jamiyat oldida turgan vazifalardan biri iqtisodiy o‘rishni oshirish va aholi hayot sifatini yaxshilash uchun zarur va qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

BMT nogironlar huquqlari to‘g‘risida Konvensiyani 130 dan ortiq mamlakat ratifikatsiya qilgan, shu jumladan o‘n bitta MDH mamlakatlari ya‘ni Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldaviya, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston Ukraina O‘zbekiston kabilardir. Konvensiya ishtirokchi mamlakatlarning milliy siyosatini ishlab chiqish uchun Konvensiyada belgilangan nogironlarning huquqlarini hurmat qilishning ustuvor yo‘nalishlarini, ularning jamiyat, hayot me‘yorlarini sifatini yaxshilash ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish vazifalarini hisobga olgan holda yangi takliflar kiritildi.

BMT konvensiyasining 9 moddasida belgilanganidek; Nogironlarning mustaqil turmush tarzini olib borishlari va hayotning barcha jabhalarida to‘liq ishtirok etishlari uchun ishtirokchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda jismoniy muhitga, transportga, axborot va kommunikatsiyalarga, shu jumladan axborot va kommunikatsiyalarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash

³ <http://www.cisstat.com/council/60cpcc/2.kes2.pdf> 2 World Report on Disability. WHO and World Bank. 2011
<https://www.who.int/disabilities/worldreport/2011/report.pdf>

uchun tegishli choralarni ko'radilar texnologiyalar va tizimlar, shuningdek shahar va qishloq joylarida jamoatchilikka taqdim etiladigan obyektlarda to'siqlarni aniqlash va olib tashlashni o'z ichiga oladi.

Imkoniyati cheklangan aholi uchun xavfsiz qulay muhit tashkil etishni umumiy talablari xorijiy tajribalarda bo'limida - Imkoniyati cheklangan aholi uchun shahar infrastrukturasida qulay muhit tashkil etishda hamda shaharlarni loyihalashda atrof muhitni kompleks hal etish masalalari tahlil qilingan.⁴ Shaharning ma'lum bir muhitida nogironlar uchun maxsus markazlarni tashkil etish orqali nogironlik darajasiga nisbatan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlanishi masalalari mutaxassislarni nazaridan chetda qolmagan. Ularni madaniy dam olishlari, sportning ma'lum bir turlari bilan shug'ullanishlari o'quv dargohlarida faolliklarini oshirish maqsadlarida maxsus markazlar tashkil etilgan. Ushbu markazlarni tashkil etish quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratiladi ya'ni;

1. Muhitni qulay va xavfsizligi:

Fazoviy yechimlar va materiallardan foydalanish (kafel bilan ochib berdilar va yo'l toshlar) harakat yo'llarini aniq ko'rsatadigan (harakat yo'llarining kengligi kamida 2 m ba'zi joylarda istisno sifatida torayishi mumkin) va xavfsizlik uchun sharoit yaratish;

Ko'chaning piyodalar qismida turli funksional zonalarni ajratish, muammoni hal qilish, piyodalar yo'llarining o'lchamlaridan to'siqlarni olib tashlash;

Piyodalar o'tish joylarini xavfsiz va nogironlar harakati uchun moslashtirilgan ma'lum bir ma'noni anglatuvchi taktil zamin belgilari va ovozli trafikdan foydalanish minimal nishabli panduslar, yoritish moslamalari ma'lum bir masofalarda o'rnatiladi;

Piyodalar yo'llarining kengligini cheklemasdan binolarga kirishni oqilona moslashtirish, binoga yaqin joylashgan kirish joylarida imkon qadar bitta umumiy rampa bilan umumiy kirish maydonini loyihalash;

Parallel to'xtash zonasi bo'lgan joylarda ko'cha to'siqlaridan foydalanishni rad etish, avtoturargohlarga va to'xtash joylariga xavfsiz yondashuvlarni ta'minlash uchun taqdim etiladi, jamoat transporti to'xtaydigan hududlarda to'siqlar tufayli piyodalar o'tish joylari, berkitilib harakatlanishga noqulayliklar bo'lmasligini ta'minlash;

Transport harakatlanish qismida vertikal o'simliklardan foydalanish va qatnov qismining ikki tarafdan maxsus nogironlar uchun yo'lakchalar ajratib, 10-15 metrda dam olish hududni tashkil etish talab etiladi.

⁴ <https://qomus.info/encyclopedia.cat/ijtimoiy-muhit-uz>

2. Shahar muhitini yoki nogironlar harakatlanishi uchun turli muhitlarni intuitiv his etish:

Fazoviy yechimlardan izchil foydalangan holda shahar muhitini yaratish, (materiallar va ochib berdilar materiallar birikmasi, kichik landshaft elementlar dizayn, axborot belgilari), shuningdek, to'laqonli axborot tizimini yaratish va yo'naltirish;

Ko'chalar bo'ylab tanlangan qoplamali materiallarining kombinatsiyasidan izchil foydalanish;

Takrorlanadigan fazoviy yechimlar va materiallardan izchil foydalanish, masalan, piyodalar yo'llarida yo'lak maydonlarini ajratish

yoritish polosalarining, axborot belgilari, piyodalar qismining svetoforlari, turini ajratish yo'lak va hovlidan chiqish bilan trotuarlar chorrahasida ma'lum bir ranglardan foydalanish, dam olish joyini joylashtirishda yo'lak turi, jamoat transporti to'xtaydi qismlaridagi maxsus belgilar;

Yagona axborot tizimidan foydalanish, manzil plitalarining yagona dizayni, yo'nalish belgilari;

Barcha ommaviy axborot vositalarida o'qiladigan, kontrast ranglardagi juda katta shriftlardan foydalanish;

Tegishli va mumkin bo'lgan joylarda matnni piktogrammalar bilan takrorlashni amalga oshirish;

Dam olish hududlari va chorahalarda yo'naltiruvchi axborotlarni to'la ta'minlash;

Shahar muhitidagi reklama belgilari va plakatlarini bir xillashtirish, natijada-ko'rgazmalilikni qisqartirish shovqindan himoya qurilmalaridan foydalaniladi.

3. Qulay muhit tashkil etishda;

Joylarda muntazam masofalarda mini-maydonlar - yashil dam olish maskanlarini rejalashtirish, piyodalar zonasini kengaytirish;

Dam olish joylari uchun ergonomik dizayn va materiallardan foydalanish.;

Ma'lum bir hududda nogironlarni to'xtab dam olish vaqtini taxmin qilingan xolda turli ko'rinishdagi o'rindiqlarni ishlab chiqish;

Nogironlar uchun maxsus shahar infratuzilmasida to'xtash joylarini ajratish muhim tamoyillardan hisoblanadi.

4. Hayot sifatini oshirish uchun:

Shaharning markaziy ko'chalaridan tashqari nogironlar harakatlanadigan shahar muhitida qurilish me'yorlariga asosan barcha hududlar ko'cha bog'lar va maydonlar tarmog'ini bog'laydigan yashil yo'lak sifatida rejalashtirish;

Shaharning turli siluetiga mos keladigan shahar muhitini yaratish va neytral materiallar orqali nogironlarni barcha guruhlari uchun ijtimoiy faollikni

rag‘batlantiruvchi makonni yaratish va boshqalar. Shaharning transport va piyodalar infratuzilmasidagi tugunlardagi ba‘zi muammolar sababli ham nogironlar harakatlanishi cheklanadi. Asosan nogironlarning ikki turini ya‘ni aravachadagi nogironlar va ko‘zi ojizlar infratuzilma tugunlaridagi muammolardan aziyat chekadilar. Bunday xollarni oldini olish tadbirlari xorijiy amaliyotda mukammal tadbiq etilganligi tahlil qilinadi.

Imkoniyati cheklangan aholi uchun shahar infratuzilmasida xavsiz qulay muhit yaratishda universal dizayn tushunchasini kiritish bo‘limida BMT Konvensiyasi talablariga ko‘ra nogironlar huquqlari bo‘yicha, iste‘molchilarning turli qobiliyatlariga nisbatan mavjud qurilishlarda qabul qilinadigan me‘yorlarga o‘zgartirish kiritadi. Zamonaviy ijtimoiy rehabilitatsiya jarayonlarida universal dizayn tushunchasini kiritadi. Shahar muhitini tashkil qilishda, quyidagilarni anglagan xolda taklif berish muhim omil hisoblanadi. Universal dizaynning yetti tamoyili barcha uchun teng foydalanish imkoniyatlariga ekanligi va zamonaviy innovatsiyalar orqali universal dizaynni qo‘llash dolzarbligi yoritiladi.

Dissertatsiyaning **“Imkoniyati cheklangan aholi uchun ixtisoslashgan markazlarning arxitektura muhitini tashkil etish tamoyillari nazariy tahlili”** deb nomlangan II bobi uch bo‘limdan iborat bobning “O‘zbekiston hududida nogironlarni statistik faktorlari, nogironlar maxsus shahar infratuzilma obyektlarida hamda nogironlar jamiyatlarida arxitekturaviy muhit tahlili” deb nomlangan birinchi bo‘limida O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning rasman e‘lon statistikasi va Toshkent shahridagi nogironlar turar joylari mavzellarida va nogironlar jamiyati, umuman shahar infratuzilmalaridagi holatlar haqida so‘z boradi.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning rasman e‘lon qilingan soni aholining 2,1 foizini tashkil qiladi. Butun dunyo aholisining taxminan 15 foizi nogironlikning u yoki bu shakliga ega ekanligini hisobga olsak, ehtimol, bu raqam yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Toshkent shahrining o‘zida rasmiy 45 mingga yaqin norasmiy 70 ming nogironligi bo‘lgan shaxslar ro‘yxatga olingan.

2021 yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda 740.000 ga yaqin nogiron (395,0 ming ayol va 345,0 ming erkak) pensiya va ijtimoiy nafaqa yoshdagilar, shu jumladan 111,3 ming bola 16 yoshgacha bulardan 48,8 ming qiz va 62,5 ming o‘g‘il bolalarni tashkil etgan.

Ayni paytda O‘zbekistonda 67.000 nafar ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar istiqomat qilib keladi. Ularning 68,8% foizi jamiyat ro‘yxatida tursa, 31,2% jamiyat a‘zolari sifatida faoliyat olib boradilar. 2019 yilda o‘tkazilgan tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatdiki, nogironlik aravachasiga

muhtoj bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning atigi 26,9 foizi ulardan foydalangan. Ushbu tadqiqot ishtirokchilarining deyarli yarmi (43,6%) nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yordamchi vositalar va xizmatlarga muhtojligini ta'kidlaganlar. Respondentlarning 21,5 foizi bu vositalardan foydalanishga imkonli bo'lgani xolda, ularning atigi 2,8 foizi tegishli davlat muassasalaridan ushbu vositalarni olganlar deb yoritiladi jahon banki hamda gazeta uz nashrilaridaga ma'lumotlarida.

Ikkinchi bobning **“Shahar infratuzilmasida QMQ lar asosida tashkil etilgan qulayliklarni ijtimoiy so'rovnomalari tahlili”** bo'limida Toshkent shahri infratuzilma obyektlarida va Toshkent viloyatining ko'zi ojizlar yashash hududlarida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilganligi yoritiladi So'rovnoma natijalariga ko'ra Toshkent shahri unfratuzilmalarida nogironlar uchun noqulayliklar 85 % ni tashkil etishi xulosa qilindi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa qilinganda nogironlarning ikki kategoriyalari bo'yicha statistik holatlar tahlil qilindi. Nogironlar shahar infratuzilma obyektlarida hamda nogironlar jamiyatlarida arxitekturaviy muhit tashkil etilganlik holatlari ko'rib o'tildi. QMQ larga ba'zi takliflar kiritildi va jahon tajribalarini tahlil qilgan holda qiyosiy tahlillar keltirib o'tilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.04.2022 yildagi PQ-230-son “Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarorining 8 bandida qurilish-ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari o'rnatilgan tartibda 2023 yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirilishini ta'minlansin deb ta'kidlab o'tilgan.

SHNQ 2.07.013.2. punktiga muvofiq transport va piyodalar yo'lkalarining parametrlari va qurilishiga oid talablar nogironlar harakalanishi uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan talablar mazkur loyihalash me'yorlari matnida keltirilgan. Ushbu QMQlar asosida shahar infratuzilma obyektlarida so'rovnomalar o'tkazildi. Toshkent shahridagi bir necha tumanlardagi holatlar so'rovnoma diagrammalari orqali keltirib o'tildi. Har bir hududdagi nogironlarni harakatlanish yo'laklari mahalliy aholini so'rovnomalari orqali aniqlandi. Zamonaviy qurilishlar jadallik bilan olib borilayotgan bir vaqtda binolar loyihalananayotganda imkoniyatlari cheklangan aholini jamiyatimizning ajralmas qismi deb qabul qilishimiz muhimdir. Nogironlar uchun ishlab chiqilgan qurilish me'yorlaridagi ba'zi jihatlarga, zamonaviy yechimlar bersak maqsadga muvofiq bo'lishi haqida fikrlar bildirilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida QMQ da imkoniyati cheklangan aholi uchun tashkil etiladigan qulay muhitlarni tahlil qilish va tavsiyalar” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida O‘zbekiston Respublikasida nogironlar va aholini kam harakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda ularning hayot faoliyati muhitini loyihalash me‘yor va qoidalari shahar va qishloq aholi yashash punktlarining turar-joy va jamoat binolarining funksional-rejaviy elementlariga (harakat yo‘llari parametrlariga, transport o‘tish joylari va kirish uzellari, dam olish joylari, avtoturargoh, tuzilmasi va boshqalar), bino va inshootlarning kirish elementlari tuzilmasiga, bino ichidagi harakat yo‘llariga (evakuatsiya yo‘llari), madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish joylarining funksional mintaqalariga, tamosha va sport zallariga, yashash va mehnat bilan shug‘ullanish joylariga, sanitar-gigiyenik joylariga, hamda nogironlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan binolarga taalluqli qurilish me‘yorlari ishlab chiqilgan.

Ushbu bino va inshootlarga kirish sharoitini ta‘minlashga, jismoniy imkoniyatlari chegaralangan insonlarning hayot faoliyati normal sharoitini yaratishga, hayot va salomatlikni himoyalashga yo‘naltirilgan norma va qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida bino va inshoot loyihalarini (shu jumladan rekonstruksiyalash), rejalash va qurilish loyihalarini ishlab chiquvchi barcha loyiha tashkilotlari uchun majburiy hisoblanishi ta‘kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida SHNQ 2.07.02-24 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” qoidalari O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qurilish me‘yorlariga nisbatan ishlab chiqilgan.

Me‘yoriy talablarni to‘la hajmda bajarish imkoniyati bo‘lmagan hollarda, loyihalashga bo‘lgan vazifada ijtimoiy himoya hududiy bo‘limlari va nogironlar jamiyati, arxitektura va shaharsozlik bo‘limlari bilan tegishli ra-vishda kelishilgan holda rejaviy va texnik choralarning yetarli lozim bo‘lgan tadbirlar majmuasi beriladi. Zamonaviy qurilishlar jadallik bilan olib borilayotgan bir vaqtda binolar loyihalayotganda imkoniyatlari cheklangan aholini jamiyatimizning ajralmas qismi deb qabul qilishimiz muhimdir. Nogironlar uchun ishlab chiqilgan qurilish me‘yorlaridagi ba‘zi jihatlarga, zamonaviy yechimlar bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Binolarni funksional vazifalariga ko‘ra eksteryer va interyerlaridagi ergonomik talablarni, maxsus taktil materiallar yoki aravachada harakatlanadigan nogironlar uchun panduslar foizlarini hududga nisbatan ishlab chiqish muhimdir. O‘zbekistonda ham ogironlar jamiyatida va mahsus markazlarda, aynan nogironlar uchun mo‘ljallangan arxitekturaviy yechimlarni

kiritish dolzarb masalalardan hisoblanib universal dizayn takliflarini kiritish g'oyalari ham amaliy loyihalarda bajarilishi zarur ekanligi nazariy jihatdan yoritiladi.


